O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA UNDOSH FONEMALARNING O‘RGANILISHI

Mirxoliyev Hayotjon Niyatqobul o‘g‘li

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Habibullayev Asadullo Akmalovich
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Doi : https://doi.org/10.5281/zenodo.20035754

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida undosh fonemalarning o‘rganilishi masalasi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Xususan, o‘zbek tilshunosligida undosh fonemalar artikulyatsion (hosil bo‘lish o‘rni,usuli va ovoz va shovqinning ishtiroki) hamda akustik xususiyatlariga ko‘ra o‘rganiladi. Ular nutq a’zolarining to‘siqqa uchrashi natijasida hosil bo‘lib, unlilardan farqli o‘laroq, bo‘g‘in hosil qilmaydi. Asosiy e‘tibor ularning fonologik tizimdagi o‘rni, juftligi (jarangli/jarangsiz) va artikulyatsion bazasiga qaratiladi. Undosh Fonemalarni o‘rganishning Asosiy Jihatlari:hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra: lab-lab, lab-tish, til oldi, til o‘rta, til orqa va bo‘g‘iz undoshlariga bo‘linadi.Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra: portlovchi, sirg‘aluvchi, qorishiq (affrikat) va sonor undoshlar turlari o‘rganiladi.Fonologik xususiyatlari:ovoz va shovqinning ishtiroki. Jarangli va jarangsiz undoshlarning qarama-qarshiligi, ularning so‘z ma’nosini farqlashdagi o‘rni.

Kalit so‘zlar: fonema, artikulatsion xususiyatlar, akustik xususiyatlar, jarangli undoshlar, jarangsiz undoshlar, hosil bo‘lish usuli, hosil bo‘lish o‘rni, lab-lab undoshlari, lab-tish undoshlari, til o‘rta undoshlari, til orqa undoshlari, bo‘g‘iz undoshlari, portlovchi undoshlar, sirg‘aluvchi undoshlar, qorishiq (affrikat) undoshlar, sonor undoshlar.

Аннотация: В данной статье комплексно анализируется проблема изучения согласных фонем в узбекском языкознании. В частности, согласные фонемы в узбекском языке рассматриваются с точки зрения их артикуляционных (место и способ образования) и акустических характеристик. Они образуются в результате преграды в речевых органах и, в отличие от гласных, не образуют слог. Основное внимание уделяется их месту в фонологической системе, парности (звонкие/глухие) и артикуляционной базе.Основные аспекты изучения согласных фонем:По месту образования: губно-губные, губно-зубные, переднеязычные, среднеязычные, заднеязычные и гортанные согласные.По способу образования: смычные (взрывные), щелевые, аффрикаты и сонорные согласныеУчастие звука и шума.Фонологические особенности: противопоставление звонких и глухих согласных, а также их роль в различении значений слов.

Ключевые слова: фонема, артикуляционные особенности, акустические особенности, звонкие согласные, губно-губные согласные, губно-зубные согласные, среднеязычные согласные, заднеязычные согласные, гортанные согласные, взрывные согласные, щелевые согласные, аффрикаты, сонорные согласные.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the study of consonant phonemes in Uzbek linguistics. In particular, consonant phonemes in the Uzbek language are examined according to their articulatory (place and manner of articulation) and acoustic features. They are produced as a result of an obstruction in the speech organs and, unlike vowels, do not form syllables. The main focus is on their role in the phonological system, their pairing (voiced/voiceless), and their articulatory base.Main aspects of studying consonant

phonemes:According to the place of articulation: bilabial, labiodental, alveolar (front-tongue), palatal (middle-tongue), velar (back-tongue), and glottal consonants.According to the manner of articulation: plosive, fricative, affricate, and sonorant consonantsParticipation of sound and noise.Phonological features: the opposition of voiced and voiceless consonants and their role in distinguishing word meanings.

Keywords: phoneme, articulatory features, acoustic features, voiced consonants, voiceless consonants,bilabial consonants, labiodental consonants, palatal consonants, velar consonants, glottal consonants, plosive consonants, fricative consonants, affricate consonants, sonorant consonants.

Kirish. So‘z yoki morfemaning ma‘nolarini yuzaga keltiradigan,ularning ma‘nolarini farqlaydigan va nutqning mayda qismlarga bo‘linmaydigan eng kichik elementi fonema deyiladi.Tovush -bu nutq a‘zolari(til, lab, tish,ovoz paychalari va boshqalar) yordamida hosil qilinadigan va eshitish orqali qabul qilinadigan eng kichik nutq birligi.Tovushlar tizimini o‘rganishda fonetika va fonologiya fanlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, fonema tushunchasi tilshunoslikda markaziy o‘rin tutib, u nutq tovushlarining eng kichik, ma‘no farqlovchi birligi sifatida qaraladi. Fonemalar orqali so‘zlar ma‘nosi farqlanadi va tilning fonologik tizimi shakllanadi.O‘zbek tilshunosligida undosh fonemalar alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida keng o‘rganilgan. Undosh fonemalar artikulatsion va akustik xususiyatlariga ko‘ra tavsiflanadi. Artikulatsion xususiyatlar nutq a‘zolarining ishtiroki, ya‘ni tovushlarning hosil bo‘lish o‘rni va usuli bilan bog‘liq bo‘lsa, akustik xususiyatlar tovushlarning eshitilish xususiyatlari, jarangli yoki jarangsizligi bilan izohlanadi. Shu jihatdan undoshlar nutq jarayonida muhim fonologik funksiyani bajaradi.Undosh fonemalarning hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra lab-lab, lab-tish, til o‘rta, til orqa va bo‘g‘iz undoshlari ajratiladi. Bu tasnif nutq a‘zolarining qaysi qismi faol ishtirok etishiga asoslanadi. Shuningdek, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra undoshlar portlovchi, sirg‘aluvchi, qorishiq (affrikat) va sonor turlarga bo‘linadi. Har bir tur o‘ziga xos artikulatsion mexanizm va akustik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular tilning tovush tizimini boyitadi.Bundan tashqari, undosh fonemalarning jarangli va jarangsiz juftliklari tilning fonologik tizimida muhim o‘rin tutadi. Bu qarama-qarshilik so‘z ma‘nosini farqlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shu sababli undosh fonemalarni o‘rganish nafaqat fonetika, balki fonologiya nuqtayi nazaridan ham dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida undosh fonemalarning artikulatsion va akustik xususiyatlari, ularning hosil bo‘lish o‘rni va usullari, shuningdek, fonologik tizimdagi o‘rni keng yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Sayfullayeva R.R: Kuchli ziddiyatdagi undosh fonemalarni farqlovchi asosiy belgi quyidagilar hisoblanadi: a) hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra; b) hosil bo‘lish usuliga ko‘ra; d) ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra. Hozirgi o‘zbek tilida 24 ta undosh fonema mavjud. Undosh fonemalar artikulyatsion o‘rniga ko‘ra quyidagi binar ziddiyatli munosabatlarga kirishadi: a) «lab-lab – til oldi»: p – t; b – d; m – n; f – s; v – z; f – sh; v – l; v – r; b) «lab-lab – til o‘rta»: f – y; v – y; d) «lab-lab – til orqa»: p – k; b – k; f – x; v – g; e) «lab-lab – bo‘g‘iz»: f – h; v – h; f) «til oldi – til orqa»: t – k; t – q; d – g; s – x; z – g; n – g. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra undosh fonemalar quyidagi ziddiyatli munosabatda bo‘ladi: a) «portlovchi-sirg‘aluvchi»: p – f; b – v; t – s; d – z; t – sh; k – x. Ayrim fonemalar affrikat fonemalar bilan teng qiymatli ziddiyatda bo‘ladi: t – ng, d – dj. Sirg‘aluvchi fonemalar ham affrikat fonemalar bilan teng qiymatli ziddiyat hosil qiladi: sh – ch, j – dj. Yana quyidagi ziddiyatli juftliklar mavjud: a) «portlovchi – shovqinli – burun sonanti»: b – m; d – n; g – n; b) «sirg‘aluvchi – sonant»: z – l; j – r; d) «shovqinli sonant – burun sonant»: l – n; r – n; e) «yon sonant – titroq sonant»: l – r; f) «titroq sonant – til o‘rta sonant»: f – y. Pardayev A.B., Qurbonov S.A. O‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ining ma’lum bir joyida yoki bo‘g‘izda to‘siqqa uchrashidan hosil bo‘ladigan, shovqin ishtirok etadigan va bo‘g‘in hosil qila olmaydigan tovushlar undosh tovushlar sanaladi. Tilimizda

quyidagi 24 ta undosh tovush bor: b, v, g, d, z, j, dj, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g‘, h, ng. Undosh tovushlar ham bir nechta tomondan tasnif qilinadi: 1) hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra; 2) hosil bo‘lish usuliga ko‘ra; 3) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra. Hosil bo‘lish o‘rniga (nutq a’zolarining ishtirokiga) ko‘ra undoshlar tasnifi .Turi Xususiyatlari 1 Lab undoshlari 1) lab-lab: b, p, m 2) lab-tish: v, f Talaffuzida lab ishtirok etgan tovushlar lab tovushlari deyiladi. 2 Til undoshlari 1) til oldi: t, d, s, z, ch, j, dj, sh, l, r, n. 2) til o‘rta: y 3) til orqa: g, k, ng 4) chuqur til orqa: q, g‘, x Tilning tish va tanglayga tegishidan hosil bo‘lgan tovushlarga til tovushlari deyiladi. Til qismlarining harakatiga ko‘ra til tovushlari to‘rtga bo‘linadi. 3 Bo‘g‘iz undoshi h O‘pkadan chiqayotgan havoning bo‘g‘izda qisilishidan hosil bo‘lgan tovushga bo‘g‘iz tovushi deyiladi. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra undoshlar tasnifi 1 Portlovchilar b, p, d, t, g, k, j, q, m, n, ng Portlovchi undoshlar o‘pkadan kelayotgan havoning to‘siqdan bir zarb bilan portlab chiqishi natijasida hosl bo‘ladi. Ularni cho‘zib talaffuz qilib bo‘lmaydi. 2 Sirg‘aluvchilar v, f, z, s, y, r, l, sh, g‘, x, h, dj Sirg‘aluvchi undoshlar o‘pkadan kelayotgan havoning to‘siqdan sirg‘alib o‘tishi natijasida hosil bo‘ladi. Ularni ma’lum darajada cho‘zib talaffuz qilish mumkin. 3 Qorishiq ch Qorishiq undosh o‘pkadan kelayotgan havoning to‘siqdan ham portlab, ham sirg‘alib o‘tishi natijasida hosil bo‘ladi. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra undoshlar tasnifi 1. Jarangli undoshlar b, d, v, g, z, j, dj, g‘, y, l, m, n, ng, r Jarangli undoshlarning tarkibida ham ovoz, ham shovqin bo‘ladi. 2 .Jarangsiz undoshlar p, t, f, k, s, ch, sh, x, q, h Jarangsiz undoshlar faqat shovqindan iborat bo‘ladi. Yuqoridagi uchta tasnif undoshlarning asosiy tasniflanishi hisoblanadi. Bundan tashqari undoshlar boshqa bir nechta jihatlariga ko‘ra kichik tasniflarga ham ega. Undoshlarning tarkibiga ko‘ra tasnifi № Turi Xususiyatlari 1 Sof undoshlar b, p, d, t, g, k, j, q, m, n, ng, v, f, z, s, y, r, l, sh, g‘, x, h, dj Sof undoshlar deganda havo oqimi to‘siqdan yo faqat portlab, yo faqat sirg‘alib o‘tadigan undoshlar tushuniladi. Bunday undoshlarga barcha portlovchi va sirg‘aluvchi undoshlar kiradi. 3. Qorishiq undosh ch. Qorishiq undosh o‘pkadan kelayotgan havoning to‘siqdan ham portlab, ham sirg‘alib o‘tishi natijasida hosil bo‘ladi. Ovoz va shovqinning ishtirokiga (darajasiga) ko‘ra undoshlar tasnifi Sonor (ovozdor)lar tarkibida ovoz shovqindan kuchliroq bo‘ladi. Ya’ni 1 Sonor (ovozdor)lar l, m, n, ng, r ular tarkibida ovoz ham, shovqin ham bo‘lsa-da, ovoz darajasi shovqindan ko‘proq bo‘ladi. Sonorlardan l – yon tovush, r – titroq tovush, m,n ng – burun tovushlari sanaladi. 2. Shovqinlilar b, d, t, v, g, z, j, dj, g‘, y, tarkibida ovoz shovqindan kuchsiz bo‘ladi yoki umuman ovoz bo‘lmay, faqat shovqindan iborat bo‘ladi. Bunday p, f, k, s, ch, sh, x, q, h undoshlarga barcha jarangsiz undoshlar va sonorlardan tashqari qolgan jarangli mansubdir.

Muhokama. O‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ining ma‘lum bir joyida yoki bo‘g‘izda to‘siqqa uchrashidan hosil bo‘ladigan, shovqin ishtirok etadigan va bo‘g‘in hosil qila olmaydigan tovushlar undosh tovushlar sanaladi. Undosh tovushlarning hosil bo‘lishida o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ining yoki bo‘g‘izning qayerida to‘siqqa uchrasa, o‘sha joy undosh tovushning hosil bo‘lish o‘rni sanaladi, ya‘ni undoshlarning hosil bo‘lish o‘rni deganda o‘pkadan chiqayotgan havoning to‘siqqa uchrash joyi va o‘sha joyda joylashgan nutq a‘zosining ishtiroki nazarda tutiladi. Hozirgi o‘zbek tilida 24 ta undosh tovush, 23 harf mavjud. Tilimizda quyidagi 24 ta undosh tovush bor: b, v, g, d, z, j, dj, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g‘, h, ng. Undosh tovushlar ham bir nechta tomondan tasnif qilinadi: 1) hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra; 2) hosil bo‘lish usuliga ko‘ra; 3) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra.Artikulatsiya(hosil bo‘lish) o‘rniga (nutq a‘zolarining ishtirokiga) ko‘ra undoshlar tasnifi:1. Lab undoshlari-b,p,m,v,f. 1) lab-lab: b, p, m.(B undoshi odatda portlovchi p yoki lal-labdan hosil bo‘lgan sirg‘aluvchi V tovushiga aylanishi ham mumkin.Masalan: b tovushi so‘z oxirida jarangsizlashadi va p tovushiga yaqinlashadi: kitob-kitop,javob-javop, kelib-kelip va boshqalar bu holat faqat talaffuzda ishtirok etadi yozuvda o‘z holi bo‘yicha yoziladi.Ko‘pchilik o‘zbek shevalarda so‘z orasida b tovushi v tovushiga aylanadi. Masalan: xabar-xavar,yozib oldi-yoziv oldi. Bu holat faqat talaffuzda yuz beradi.Ba‘zi hollarda so‘z boshida m tovushiga moyil aytiladi.Masalan:

bunday-munday bu ham talaffuzda yuz beradi).(M undoshi burun va lab tovushi m ikki labning jipslashuvi va havo oqimining burun bo‘shlig‘idan o‘tib chiqishi orqali hosil bo‘ladi va har vaqt bir xil aytiladi: mol,mumkin, mashina va boshqalar).(P ikki lab bir-biriga mahkam yopiladi,so‘ng havo bosimi birdan ochilib chiqadi).2) lab-tish v,f.(F undoshi ko‘pchilik o‘zbek shevalarida kam ishlatiladi. So‘zdagi o‘rniga qarab P kabi talaffuz qilinishi mumkin.Masalan: fon-pon, fabrika-pabrika va boshqalar, lekin o‘z holi kabi yoziladi).(V undoshi ko‘p hollarda tish ishtirokisiz, ikki lab orasida talaffuz qilinadi. Masalan: vaqt, quvvat, varaq).Talaffuzida lab ishtirok etgan tovushlar lab tovushlari deyiladi.2. Til undoshlari: 1) til oldi: t, d, s, z, ch, j, dj, sh, l, r, n.(Jasur to‘la idishini cho‘z+dj,bu usul orqali undoshlarni tez eslab qolsa bo‘ladi). 2) til o‘rta: y 3) til orqa: g, k, ng 4) chuqur til orqa: q, g‘, x. 5) til o‘rta: y 6) til orqa: g, k, ng 7) chuqur til orqa: q, g‘, x 3. Bo‘g‘iz undoshi:h. O‘pkadan chiqayotgan havoning bo‘g‘izda qisilishidan hosil bo‘lgan tovushga bo‘g‘iz tovushi deyiladi.Artikulatsiya (hosil bo‘lish) usuliga ko‘ra undoshlar tasnifi: 1. Portlovchilar: b, p, d, t, g, k, j, q, m, n,ng.(Bojamning etigi qopdek). Portlovchi undoshlar o‘pkadan kelayotgan havoning to‘siqdan bir zarb bilan portlab chiqishi natijasida hosl bo‘ladi. Ularni cho‘zib talaffuz qilib bo‘lmaydi. 2. Sirg‘aluvchilar: v, f, z, s, y, r, l, sh, g‘, x, h, dj. (Shayx ahli vafosizlarga+dj).Sirg‘aluvchi undoshlar o‘pkadan kelayotgan havoning to‘siqdan sirg‘alib o‘tishi natijasida hosil bo‘ladi. Ularni ma‘lum darajada cho‘zib talaffuz qilish mumkin. 3. Qorishiq: ch,(dj,ts). Qorishiq undosh o‘pkadan kelayotgan havoning to‘siqdan ham portlab, ham sirg‘alib o‘tishi natijasida hosil bo‘ladi.Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra undoshlar tasnifi: 1. Jarangli undoshlar: b, d, v, g, z, j, dj, g‘, y, l, m, n, ng, r.(Mening yo‘llarim buvazoda jo‘gidag‘).Jarangli undoshlarning tarkibida ham ovoz, ham shovqin bo‘ladi. 2. Jarangsiz undoshlar p, t, f, k, s, ch, sh, x, q, h.(Ha pastkash qafaschi). Jarangsiz undoshlar faqat shovqindan iborat.Ovoz va shovqinning ishtirokiga (darajasiga) ko‘ra undoshlar tasnifi: 1. Sonor (ovozdor)lar: l, m, n, ng, r.(Limonrang). Sonor (ovozdor)lar tarkibida ovoz shovqindan kuchliroq bo‘ladi. Ya‘ni 1 Sonor (ovozdor)lar l, m, n, ng, r ular tarkibida ovoz ham, shovqin ham bo‘lsa-da, ovoz darajasi shovqindan ko‘proq bo‘ladi. Sonorlardan l – yon tovush, r – titroq tovush, m,n ng – burun tovushlari(mening) sanaladi. Boshqa sath birliklarida bo‘lgani kabi, fonemalarning asosiy belgilari korrelyativ va korrelyativ bo‘lmaganlarga ajraladi. Ziddiyatda turgan fonemaning birida bor, ammo ikkinchisida mavjud bo‘lmagan belgi – korrelyativ belgi. Masalan, b – p zidlanishda jarangli-jarangsizlik korrelyativ belgidir. Ammo til oldi va portlovchilik belgisi har ikkala fonema uchun ham xos bo‘lganligi sababli korrelyativ bo‘lmagan belgi deyiladi. Shuningdek, h undoshida jarangsizlik belgisi mavjud. Ammo shu belgi asosida uni boshqa fonema bilan zid qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki p fonemasining jarangli jufti b fonemasi. h fonemasining esa jarangli jufti o‘zbek tili fonologik tizimida mavjud emas. O‘zbek tilidagi 8 ta fonema uchun «jarangli-jarangsizlik» korrelyativ belgi hisoblanadi: b – p, d – t, k – g, s – z, j – ch, j – sh, g‘ – q, v – f «Jarangli-jarangsizlik» belgisi asosida korrelyativ munosabatga kirishmaydigan fonemalarning jarangli yoki jarangsiz jufti bo‘lmaydi. Masalan: l, m, y, x, h, n, r, ng. Fonemaning asosiy korrelyativ belgilari farqlovchi belgi hisoblanadi. Masalan, s fonemasining jarangsizlik, z fonemasining jaranglilik belgisi farqlovchi belgidir. Yuqoridagi uchta tasnif undoshlarning asosiy tasniflanishi hisoblanadi. Bundan tashqari undoshlar boshqa bir nechta jihatlariga ko‘ra kichik tasniflarga ham ega. Undoshlarning tarkibiga ko‘ra tasnifi1 Sof undoshlar b, p, d, t, g, k, j, q, m, n, ng, v, f, z, s, y, r, l, sh, g‘, x, h, dj. Sof undoshlar deganda havo oqimi to‘siqdan yo faqat portlab, yo faqat sirg‘alib o‘tadigan undoshlar tushuniladi. Bunday undoshlarga barcha portlovchi va sirg‘aluvchi undoshlar kiradi. Undosh tovushlar nutqning aniq, ravon va tushunarli bo‘lishida muhim ahamiyatga ega. Ularni to‘g‘ri talaffuz qilish va yozishda to‘g‘ri ifodalash esa bevosita orfoepiya va orfografiya bilan bog‘liq. Undosh tovushlar talaffuzida orfoepiya quyidagilarda muhim:Jarangli–jarangsiz almashinuvi: Masalan, kitob so‘zi talaffuzda ko‘pincha kitop kabi eshitiladi (b → p). Qo‘sh undoshlarning aytilishi:katta, yetti kabi so‘zlarda undoshlar aniq va cho‘ziqroq talaffuz qilinadi.Assimilyatsiya hodisasi:Yonma-yon kelgan undoshlar bir-biriga ta’sir qiladi (masalan, talaffuzda o‘zgarish yuz beradi).Orfoepiya

ushbu nohush holatlarni oldini oladi. Undoshlar yozuvida orfografiya quyidagilarni ta’minlaydi: Talaffuz va yozuv farqi:Masalan, kitob yoziladi, lekin kitop deb talaffuz qilinishi mumkin.Undoshlarning saqlanishi: So‘z oxiridagi yoki o‘rtasidagi undoshlar yozuvda o‘zgarmaydi. Qo‘sh undoshlarning yozilishi:ikki, yetti, ommaviy kabi so‘zlarda ikki undosh yoziladi. Orfografiyada tovushlar aniq va tushunarli yoziladi va imloviy xatolarni oldi olinadi.

Xulosa. O‘zbek tilshunosligida undosh fonemalarni o‘rganish tilning tovush tizimini chuqur anglashda muhim o‘rin tutadi. Undosh fonemalar nutq jarayonida havo oqimining turli nutq a‘zolarida to‘siqqa uchrashi natijasida hosil bo‘lib, ular so‘zlarning shakllanishi va ma’no farqlashida asosiy vazifani bajaradi. Aynan undosh fonemalar yordamida so‘zlar bir-biridan farqlanadi va nutq aniq, tushunarli bo‘ladi.Tilshunoslikda undosh fonemalar artikulyatsion (hosil bo‘lish o‘rni va usuli), akustik (eshitilish xususiyati) hamda funksional jihatdan o‘rganiladi. Bu esa ularning nafaqat qanday hosil bo‘lishini, balki nutqda qanday ishlatilishini va ma‘no ajratishdagi rolini ham aniqlash imkonini beradi. Masalan, jarangli va jarangsiz undoshlarning farqi yoki portlovchi va sirg‘aluvchi tovushlarning o‘ziga xosligi til tizimining murakkab va mukammal ekanini ko‘rsatadi.Shuningdek, undosh fonemalarni o‘rganish orfoepiya (to‘g‘ri talaffuz), orfografiya (to‘g‘ri yozuv) va nutq madaniyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. To‘g‘ri talaffuz qilish, so‘zlarni aniq aytish va yozishda xatolarga yo‘l qo‘ymaslik bevosita undosh tovushlarning xususiyatlarini bilishga bog‘liq.Xulosa qilib aytganda, undosh fonemalar o‘zbek tilining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularni har tomonlama o‘rganish tilning ilmiy asoslarini chuqur egallashga, nutqni ravon va ifodali qilishga hamda kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Asqarova, B. Yunusov, M. Yo‘ldoshev, D. Muhammedova.O‘zbek tili praktikumi. Toshkent-2006.
2. X. Komilova, Sh. Shoabduraximov, X. G‘oziyev.O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti. Toshkent-1957.
3. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent-2010.
4. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalov M.Q., Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., “Fan va texnologiya”, 2009.
5. H. Jamolxonov Hozirgi o‘zbek adabiy tili Toshkent-“Talqin”-2005.